

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUQODIROVA MUXTASARXON LATIBJON QIZI

**O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI ABTOPEΦEPATИ**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD) in psychological sciences**

Abduqodirova Muxtasarxon Latibjon qizi

О'zmirlik davrida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....3

Абдукодирова Мухтасархон Латибжон кизи

Психологические особенности развития саморегуляции в подростковом возрасте.....23

Abduqodirova Muxtasar qizi

Psychological features of the development of self-management in adolescence.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUQODIROVA MUXTASARXON LATIBJON QIZI

**O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI ABTOPEΦEPATИ**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/P448 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jo‘rayev Nurbek Sa‘dullayevich**
psixologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Kamilova Nodira G‘ayratovna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Xalilova Nargiza Ikromaliyevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv sharoitida shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillikni va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda ta'lim muhim o'rin tutadi. Xususan, YUNESKO qoshidagi Global Education Monitoring Report (GEMR) va Xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti (IIER) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan yangi dasturiy hujjatga binoan dunyo miqyosida maktab o'quvchilari soni ikki uch baravar ko'payib, 207 million kishini tashkil etdi¹. Bu borada o'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini ijtimoiy tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'smirlarning o'zini o'zi boshqarish, insonning hayotdagi asosiy maqsadni anglash, agressiv ehtiyojlar, psixologik maydon, shaxs imkoniyatlari, o'zini o'zi faollashtirish, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi oshkor qilish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda o'smirlarni qisqa muddatda asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puhta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini barcha imkoniyatlariga ko'ra, shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Bu borada insonning o'zini o'zi boshqarish, o'quv faoliyati motivatsiyasi, xavotirlanish darajasi, irodaviy sifatlar bilan bog'liq psixologik muammolar diagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, psixolog mutaxassis faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarida ta'lim sifatini oshirish va o'smir yoshlarda yuksak bilim va iste'dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatining shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish² vazifalariga asoslanib, o'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarish xususiyatini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021-yil 13-iyuldagi PF-

¹ https://www.unipage.net/ru/student_statistics

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» <http://lex.uz/docs/3107036>

6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, B.G.Gappirova, E.M.Muxtorov, N.A.Qurbonboyev, Ye.A.Qulijonov, X.A.Ruxiyeva, J.Dj.Ramazanov, N.S.Safayev, V.A.Tokareva, G.O.Tulyaganova, Sh.A.Usmonova, N.T.Ubaydullayev, A.R.Vildanova, N.I.Xalilova, M.Xakimova, Ye.A.Xaxlina, A.P.Xolturayev, E.G‘.G‘oziyev, O‘.B.Shamsiyev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘smir o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilari hamda talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish jarayonini o‘quv faoliyati bilan bog‘liqligi, shaxs faoliyatida motivatsion o‘zini o‘zi boshqarishning o‘ziga xosligi, milliy o‘zini o‘zi anglashning tarkibiy komponentlari, o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi muhofaza qilishning imkoniyatlari, dinamikasi, umumiy va qiyosiy tipologik ko‘rsatkichlari, axloqiy o‘zini o‘zi anglash, bola shaxsida o‘zini o‘zi anglashiga oilaning ta‘siri masalalari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, K.Berner, I.B.Boyazitova, M.E.Botsmanova, O.V.Dashkevich, V.V.Davidoy, P.Ya.Galperin, V.K.Kalin, Yu.N.Kulyutkin, I.S.Kon, O.A.Konopkin, A.I.Lipkina, M.I.Lisin, Yu.A.Mislavskiy, V.Mishel V.I.Morosanova, G.S.Nikiforov, A.K.Osnitskiy, Yu.M.Orlov, Ya.A. Ponomarev, L.S.Vigotskiy, M.N.Valayev,

A.V.Zaxarovalarning ilmiy izlanishlarida faoliyatli yo‘nalish pozitsiyasi ijodiy o‘zini o‘zi baholashga intilish, ichki o‘zini o‘zi bilish mexanizmi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lini izlash, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning yosh jihatlari, individual imkoniyatlarini rivojlanish yo‘li sifatida anglash, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tipologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan Z. Freyd, A. Adler, K. Horney, Ye.Burn, Thomas Harris, E. Erikson, K. G. Jung, H. Sshulz-Henke, K. Levin, K. Rogers, A. Maslow, E. Fromm, R. Mau, W. Frank va boshqalar inson xarakterini shaxsiy rivojlanishi ota-ona va bola munosabatlari tizimida interpersional munosabat kompleksi, hayotiy ssenariy, identiklik, shaxs dinamik jarayoni, insoniy hayotdagi asosiy maqsadni anglash, agressiv ehtiyojlar, psixologik maydon, shaxs imkoniyatlari, o‘zini o‘zi faollashtirish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi oshkor qilish xususiyatlari jihatidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertasion tadqiqot Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-126-raqamli «Shaxs psixologik rivojlanishining samarali psixologik tadqiqot usullari» ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan (2020-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning tizimli namoyon bo‘lishini belgilab beruvchi psixologik omillarni o‘rganish asosida bu jarayonga ta’sir ko‘rsatishning amaliy usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishiga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatini shakllanish, xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish, emotsional-irodaviy soha bilan bog‘liqlik jihatlarni asoslash;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning o‘quv faoliyati komponentlari bilan bog‘liqligini aniqlash hamda shaxsda o‘zini o‘zi boshqarishning namoyon bo‘lishi va tanlashini tarkibiy komponentlarini tahlil qilish;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning yetakchi komponentlariga asoslanib, shaxs sohasiga korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishning amaliy imkoniyatlari ko‘rsatib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarish jarayoni olingan bo‘lib, Toshkent viloyati Zangiota tumani 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 7-sinfi o‘quvchilaridan 52 nafar, 9-sinf o‘quvchilaridan 61 nafar, Toshkent shahar Shayxontohur tumani 102-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 7-sinf o‘quvchilaridan 68 nafar, 9-sinf o‘quvchilaridan 69 nafar, Andijon viloyati Izboskan tumani 7- umumiy o‘rta ta’lim maktabi 7-sinf dan 56 nafar, 9-sinf o‘quvchilaridan 62 nafar jami 368 o‘quvchilari nafar respondent sifatida tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti o‘smirlik davrida o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarishni namoyon bo‘lishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, N.M. Peysaxovning “O‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati” metodikasi, V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlarini o‘rganish” metodikasi, A.M. Pxirojanning “Shaxsiy xavotirlilikni o‘rganish” metodikasi va G.A.Karpovanning “O‘quv faoliyati motivatsiyasi” metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Studentning t-mezoni, K.Pirsonning r–korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarishining reflektiv komponentlari shaxsning qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini bilish, kommunikativ, muvaffaqiyatga intilish motiviga bog‘liq ta‘lim jarayonida integrativ namoyon bo‘lishi tufayli o‘smirlardagi “o‘quvchi pozitsiyasi” bilan determinatsiyalashganligi dalillangan;

o‘smirlik davrida maktab bilan bog‘liq xavotirlanishning kuchli ifodalanishi o‘quvchidagi ichki qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, ta‘limiy maqsadlarni belgilash, qaror qabul qilishning shaxsni o‘ziga beradigan bahosi va shaxslararo munosabatlardagi xavotir darajasiga ikki qutbli ta‘sir etishi natijasida o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmasini rivojlanishiga psixologik to‘siq ekanligi isbotlangan;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishi o‘quvchilardagi mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat‘iyatlilik, maqsadga intiluvchanlikning ta‘lim jarayonida qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va prognozlay olish xususiyatlarini shakllanishiga ta‘siri tufayli, irodaviy sifatning ustuvor namoyon bo‘lishiga bog‘liq ekanligi isbotlangan;

o‘smirlarning xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ijtimoiy jarayonlarda o‘zini o‘zi emotsional nazorat qilish zarurligiga ko‘ra “psixik desensibilizatsiya” holatini shaxs xususiyatlari bilan integrativ faollashtirish muhimligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaxsda o‘zini o‘zi boshqarishning tarkibiy komponentlarini o‘zaro aloqadorligi va uning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi yoshga bog‘liq psixologik omillarni aniqlashtirishga qaratilgan uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishni tekshirishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalarning modifikatsion variantlari taklif etilib, aprobatsiya qilingan;

o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirish bo‘yicha pedagoglar, psixologlarga taqdim etiluvchi amaliy tavsiyalar kengaytirilib amaliyotga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanish obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo‘lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo‘llanilgani, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to‘ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxs o'zini o'zi boshqarishning shaxs sifatleri hamda o'zini o'zi boshqarish tizimi xususiyatlari bilan bog'liqligiga doir ilmiy tasavvurlarni boyitadi, ilmiy tadqiqot o'smirlik davrida shaxs sifatleri, refleksiv xususiyatlar kabi jarayonlarni o'rganish bilan aloqador yangi istiqboldagi yo'nalishni ochib berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy-empirik ma'lumotlardan psixodiagnostika va psixokorreksiya yo'nalishida ta'lim-tarbiya jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llanilishi mumkin, tadqiqot vazifalari doirasida ishlab chiqilgan va qo'llanilgan psixologik tashxis vositalari, psixologik trening mashg'ulotlari tizimidan amaliy tadqiqotlarda foydalanish tavsiya etilgan, shuningdek dissertatsiya ishi ma'lumotlaridan "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya", "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya", "Umumiy psixodiagnostika" fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining joriu qilinishi. O'smirlik davrida o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishning psixologik xususiatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarishining refleksiv komponentlari shaxsning qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, o'zini nazorat qilish ko'nikmasini bilish, kommunikativ, muvaffaqiyatga intilish motiviga bog'liq ta'lim jarayonida integrativ namoyon bo'lishi tufayli o'smirlardagi "o'quvchi pozitsiyasi" bilan determinatsiyalashganligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024 yil 9 noyabrdagi PM-242-son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 13 noyabrdagi PM-242-c-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxsda o'zini o'zi boshqarishning refleksiv komponentlari namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan;

o'smirlik davrida maktab bilan bog'liq xavotirlanishning kuchli ifodalanishi o'quvchidagi ichki qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, ta'limiy maqsadlarni belgilash, qaror qabul qilishning shaxsni o'ziga beradigan bahosi va shaxslararo munosabatlardagi xavotir darajasiga ikki qutbli ta'sir etishi natijasida o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasini rivojlanishiga psixologik to'siq ekanligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024 yil 9 noyabrdagi PM-242-son buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 13 noyabrdagi PM-242-c-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv faoliyatida xulq atvorni boshqarish komponentlariga ustuvorlik berilishi natijasida qadriyatlar tizimida anglangan ijtimoiy ta'sir mexanizmlari (norma, axloq, ustanovka) shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanishi orqali shaxsiy ijtimoiy identifikatsiyaning rivojlanishi asoslanilgan;

o'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarishning rivojlanishi o'quvchilardagi mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, maqsadga

intiluvchanlikning ta'lim jarayonida qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va prognozlay olish xususiyatlarini shakllanishiga ta'siri tufayli, irodaviy sifatlarning ustuvor namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024 yil 9 noyabrdagi PM-242-son buyrug'i bilan "Shaxs psixologiyasi" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 13 noyabrdagi PM-242-c-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxsdla iroda kuchining lokalizatsiyasiga ko'ra boshqarish tiplari aniqlashtirilgan;

o'smirlarning xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ijtimoiy jarayonlarda o'zini o'zi emotsional nazorat qilish zarurligiga ko'ra, "psixik desensibilizatsiya" holatini shaxs xususiyatlari bilan integrativ faollashtirish muhimligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024 yil 9 noyabrdagi PM-242-son buyrug'i bilan "Muloqot psixologiyasi" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 13 noyabrdagi PM-242-c-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'smirlarning xulq-atvorida o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 2 ta va xalqaro darajada 2 ta ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertasion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zini o'zi boshqarish muammosini psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi**" deb nomlanib, unda o'zini o'zi boshqarish tushunchasining mazmuni, xorij psixologlari tadqiqotlarida o'zini o'zi boshqarish masalasi, mamlakatimiz olimlari tadqiqotlarida o'zini o'zi boshqarish

muammolarini tadqiq etilishi doirasida olib borgan ilmiy izlanishlarining tahlillari keltirilgan. O'z navbatida xorij olimlari tomonidan o'zini o'zi boshqarish tushunchasiga nisbatan ilgari surilgan ta'riflarning mazmunini keltirib o'tmoqchimiz. V.A.Ganzenning fikriga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish ongning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, bu funksiyalarning o'zaro bog'liqligi, me'yorda psixikaning yaxlitligi, barcha psixik hodisalarning birligini hamda turli psixik jarayonlarning interatsiyasini ta'minlaydi. B.V.Zeygarnikning fikricha, o'zini o'zi boshqarish o'zining xulq-atvorlarini boshqarishga qaratilgan ongli jarayon sifatida qayd etiladi. Keltirilgan ta'riflarga mos holda o'zini o'zi boshqarish tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifini ilgari surishga muvaffaq bo'ldik. Jumladan, shaxsning o'zini o'zi boshqarishi o'z holatini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini, tafakkurini boshqara olish psixologik barqarorlikni saqlagan holda ularni boshqara olishidir.

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, B.G.Gappirova, E.M.Muxtorov, N.A.Qurbonboyev, Ye.A.Qulijonov, X.A.Ruxiyeva, J.Dj.Ramazanov, N.S.Safayev, V.A.Tokareva, G.O.Tulyaganova, Sh.A.Usmonova, N.T.Ubaydullayev, A.R.Vildanova, N.I.Xalilova, M.Xakimova, Ye.A.Xaxlina, A.P.Xolturayev, E.G'.G'oziyev, O'.B.Shamsiyevlarning ilmiy izlanishlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari hamda talabalarning o'zini o'zi boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyati, o'zini o'zi boshqarish jarayonini o'quv faoliyati bilan bog'liqligi, shaxs faoliyatida motivatsion o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xosligi, milliy o'zini o'zi anglashning tarkibiy komponentlari, o'smirlik davrida o'zini o'zi muhofaza qilishning imkoniyatlari, dinamikasi, umumiy va qiyosiy tipologik ko'rsatkichlari, axloqiy o'zini o'zi anglash, bola shaxsida o'zini o'zi anglashiga oilaning ta'siri masalalari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, K.Berner, I.B.Boyazitova, M.E.Botsmanova, O.V.Dashkevich, V.V.Davidoy, P.Ya.Galperin, V.K.Kalin, Yu.N.Kulyutkin, I.S.Kon, O.A.Konopkin, A.I.Lipkina, M.I.Lisin, Yu.A.Mislavskiy, V.Mishel V.I.Morosanova, G.S.Nikiforov, A.K.Osnitskiy, Yu.M.Orlov, Ya.A. Ponomarev, L.S.Vigotskiy, M.N.Valayev, A.V.Zaxarovalarning ilmiy izlanishlarida faoliyatli yo'nalish pozitsiyasi ijodiy o'zini o'zi baholashga intilish, ichki o'zini o'zi bilish mexanizmi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lini izlash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning yosh jihatlari, individual imkoniyatlarini rivojlanish yo'li sifatida anglash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tipologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

“O'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarishni shakllanganligini amaliy tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobda o'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarishning namoyon bo'lishi, o'smir xulq-atvorida o'zini o'zi boshqarishga o'quv faoliyatining ta'siri, emotsional-irodaviy sohani o'smir o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarishning sharti sifatida kabi masalalarni o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Buning uchun tadqiqot uchun tanlab olingan respondentlar guruhida N.M. Peysaxovning “O'zini o'zi boshqarish qobiliyati” metodikasi o'tkazilib, olingan natijalar tahlil qililib, 1-jadvalda berilgan.

O'smirlilik davrida o'zini o'zi boshqarish komponentlari o'rtasidagi aloqadorlik

O'zini o'zi boshqarish komponentlari	Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish	Proгноzlash	Maqsadni qo'yish	Rejalashtirish	Sifatni baholash mezoni	Qaror qabul qilish	O'zini o'zi boshqarish	Korreksiya	O'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati
Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish	1	0,12	0,18	0,28*	0,23*	0,18	0,12	0,35*	0,33**
Proгноzlash	0,12	-	0,11	0,18	0,1	-0,02	0,14	0,11	0,1
Maqsadni qo'yish	0,18	0,11	-	0,45**	0,54**	0,52**	0,17	0,43**	0,1
Rejalashtirish	0,28*	0,18	0,45**	-	0,25*	0,57**	-0,02	0,41**	0,09
Sifatni baholash mezoni	0,23*	0,1	0,54**	0,25*	-	0,48**	0,22	0,41**	0,26*
Qaror qabul qilish	0,18	-0,02	0,52**	0,57**	0,48**	-	0,01	0,55**	0,16
O'zini o'zi boshqarish	0,12	0,14	0,17	-0,02	0,22	0,01	-	0,13	0,17
Korreksiya	0,35*	0,11	0,43**	0,41**	0,41**	0,55**	0,13	-	0,32*
O'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati	0,33**	0,1	0,1	0,09	0,26*	0,16	0,17	0,32*	-

1-jadval natijalariga qarama-qarshiliklarni tahlil qilish o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan ($r=0,33$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, rejalashtirish bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$), sifatni baholash mezoni bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$), korreksiya bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi ta'kidlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish prognozlash, maqsadni qo'yish, qaror qabul qilish, o'zini o'zi boshqarish bilan o'zaro ahamiyatli munosabat kuzatilmadan mustaqil soha ekanligi aniqlandi.

Metodika natijalariga ko'ra, maqsadni qo'yish rejalashtirish bilan ($r=0,45$; $p\leq 0,01$), sifatni baholash mezoni bilan ($r=0,54$; $p\leq 0,01$), qaror qabul qilish bilan ($r=0,52$; $p\leq 0,01$), korreksiya bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga maqsadni qo'yish rejalashtirish qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, prognozlash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, rejalashtirish maqsadni qo'yish bilan ($r=0,45$; $p\leq 0,01$), qaror qabul qilish bilan ($r=0,57$; $p\leq 0,01$), korreksiya bilan ($r=0,41$; $p\leq 0,01$) yuqori, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish bilan ($r=0,28$; $p\leq 0,05$), sifatni baholash mezoni bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijalardan ko'rinadiki, rejalashtirish prognozlash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi.

Sifatni baholash mezoni maqsadni qo'yish bilan ($r=0,54$; $p\leq 0,01$), qaror qabul

qilish bilan ($r=0,48$; $p\leq 0,01$), korreksiya bilan ($r=0,41$; $p\leq 0,01$) yuqori, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish bilan ($r=0,23$; $p\leq 0,05$), rejalashtirish bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,05$), o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. Tajriba natijalariga ko'ra, sifatni baholash mezonini prognozlash bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd qilindi.

Qaror qabul qilish maqsadni qo'yish bilan ($r=0,52$; $p\leq 0,01$), rejalashtirish bilan ($r=0,57$; $p\leq 0,01$), sifatni baholash mezonini bilan ($r=0,48$; $p\leq 0,01$), korreksiya bilan ($r=0,55$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Natijalarga ko'ra, qaror qabul qilish qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, prognozlash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi.

Korreksiya maqsadni qo'yish bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$), rejalashtirish bilan ($r=0,41$; $p\leq 0,01$), sifatni baholash mezonini bilan ($r=0,41$; $p\leq 0,01$), qaror qabul qilish bilan ($r=0,55$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlik mavjud ekanligi aniqlandi. Shuningdek, korreksiya qarama-qarshiliklarni tahlil qilish bilan ($r=0,35$; $p\leq 0,05$), o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Ayniqsa, korreksiya prognozlash, o'zini o'zi boshqarish bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd qilindi.

2-jadval

N.M. Peysaxovning "O'zini o'zi boshqarish qobiliyati" metodikasi va G.A.Karpovanning "O'quv faoliyati motivatsiyasi" metodikalari o'rtasidagi interkorrelyatsion bog'liqlik natijalari

O'zini o'zi boshqarish komponentlari	Bilish	Kommunikativ	Emorsional	O'zini o'zi rivojlantirish	O'quvchi pozitsiyasi	Muvaffaqiyat	Tashqi (mukofot, jazo)
Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish	0,42**	0,25**	0,19**	0,24**	0,19**	0,15**	-0,34**
Prognozlash	0,45**	0,33**	0,46**	0,35**	0,18**	-0,26**	-0,24**
Maqsadni qo'yish	0,32**	0,30**	0,32**	0,19**	-0,03	0,01	0
Rejalashtirish	0,17**	0,26**	0,04	0,32**	0,19**	0,33**	-0,02
Sifatni baholash mezonini	0,36**	0,17**	-0,17**	0,13**	0,24**	0,46**	0,30**
Qaror qabul qilish	0,19**	0,35**	0,32**	0,26**	0,36**	0,62**	0,19**
O'zini o'zi boshqarish	0,15**	0,18**	0,19**	0,36*	0,17**	0,20**	0,41
Korreksiya	-0,34**	-0,26	-0,03	-0,02	-0,17**	0,09	-0,15*
O'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati	-0,24**	-0,24**	0,01	-0,09	0,13**	0,14	-0,94

O'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati qarama-qarshiliklarni tahlil qilish bilan ($r=0,33$; $p\leq 0,01$) yuqori, sifatni baholash mezoni bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$), korreksiya bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra, o'zini o'zi boshqarishning umumiy qobiliyati prognozlash, maqsadni qo'yish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, o'zini o'zi boshqarish bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiya ishimizda ilgari surilgan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarish va o'quv faoliyati motivatsiyalari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga harakat qildik. Buning uchun sinaluvchilar guruhida N.M. Peysaxovning "O'zini o'zi boshqarish qobiliyati" metodikasi va G.A.Karpovanning "O'quv faoliyati motivatsiyasi" metodikalari o'tkazilib, olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Empirik tadqiqot natijalari jadvalda aks ettirildi.

2-jadval natijalariga ko'ra, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish bilish bilan ($r=0,42$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,25$; $p\leq 0,01$), emosional bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$), o'quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyat bilan ($r=0,15$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ijobiy, tashqi (mukofot, jazo) bilan ($r=-0,34$; $p\leq 0,01$) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Prognozlash bilish bilan ($r=0,45$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,33$; $p\leq 0,01$), emotsional bilan ($r=0,46$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,35$; $p\leq 0,01$), o'quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,21$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ijobiy, muvaffaqiyat bilan ($r=-0,26$; $p\leq 0,01$), tashqi (mukofot, jazo) bilan ($r=-0,24$; $p\leq 0,01$) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

Maqsadni qo'yish bilish bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,30$; $p\leq 0,01$), emotsional bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, maqsadni qo'yish o'quvchi pozitsiyasi, muvaffaqiyat, tashqi (mukofot, jazo) bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi. Rejalashtirish bilish bilan ($r=0,17$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), o'quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyat bilan ($r=0,33$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, rejalashtirish emotsional, tashqi (mukofot, jazo) bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi.

Sifatni baholash mezoni bilish bilan ($r=0,36$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,17$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,13$; $p\leq 0,01$), o'quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,24$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyat bilan ($r=0,46$; $p\leq 0,01$), tashqi (mukofot, jazo) bilan ($r=0,30$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, emotsional bilan ($r=-0,17$; $p\leq 0,01$) ontogenetik munosabat mavjudligi kuzatildi.

Qaror qabul qilish bilish bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,35$; $p\leq 0,01$), emotsional bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,01$), o'quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,36$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyat bilan ($r=0,62$; $p\leq 0,01$), tashqi (mukofot, jazo) bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

O‘zini o‘zi boshqarish bilish bilan ($r=0,15$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=0,18$; $p\leq 0,01$), emotsional bilan ($r=0,19$; $p\leq 0,01$), o‘quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,17$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyat bilan ($r=0,20$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Shuning bilan birga o‘zini o‘zi boshqarish tashqi (mukofot, jazo) bilan o‘zaro ahamiyatli bog‘liqlikka ega bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd qilindi. Korreksiya bilish bilan ($r=-0,37$; $p\leq 0,01$), o‘quvchi pozitsiyasi bilan ($r=-0,17$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada qarama-qarshi, tashqi (mukofot, jazo) bilan ($r=-0,15$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli ontogenetik munosabat mavjudligi aniqlandi. Natijalardan ko‘rinadiki, kommunikativ, emotsional, o‘zini o‘zi rivojlantirish, muvaffaqiyat bilan o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lmasdan alohida komponent ekanligi asoslanildi. O‘zini o‘zi boshqarishning umumiy qobiliyati bilish bilan ($r=-0,24$; $p\leq 0,01$), kommunikativ bilan ($r=-0,24$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada qarama-qarshi, o‘quvchi pozitsiyasi bilan ($r=0,13$; $p\leq 0,01$) kuchli daraja ijobiy aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuning bilan birga o‘zini o‘zi boshqarishning umumiy qobiliyati emotsional, o‘zini o‘zi rivojlantirish, muvaffaqiyat, tashqi (mukofot, jazo) bilan o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lmasdan alohida hodisa ekanligi qayd etildi.

3-jadval

N.M. Peysaxovning “O‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati” metodikasi A.M. Prixojanning “Shaxsiy xavotirlilikni o‘rganish” metodikalari bo‘yicha xususiyatlari

O‘zini o‘zi boshqarish komponentlari	Maktab bilan bog‘liq	O‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq	Shaxslararo munosabat bilan bog‘liq
Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish	0,63**	0,65**	0,201
Prognozlash	0,11	0,10	0,42**
Maqsadni qo‘yish	0,55**	0,44**	0,78**
Rejalashtirish	0,61**	0,08	0,01
Sifatni baholash mezoni	0,53**	0,41**	0,69**
Qaror qabul qilish	0,32*	0,43**	0,82**
O‘zini o‘zi boshqarish	0,77**	0,12	0,47**
Korreksiya	0,22	0,14	0,38*
O‘zini o‘zi boshqarishning umumiy qobiliyati	0,48**	0,66**	0,61**

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi boshqarish jarayoniga xavotirlanish holatini ta’sirini o‘rganish maqsadida N.M. Peysaxovning “O‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati” metodikasi va A.M.

Prixojanning “Shaxsiy xavotirlilikni o‘rganish” metodikalari o‘tkazildi. Mazkur metodikalar bo‘yicha olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, jadvalda aks ettirildi.

3-jadval natijalariga ko‘ra, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,63$; $p\leq 0,01$), o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,65$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada aloqadorlikka ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Shuning bilan birga qarama-qarshiliklarni tahlil qilish shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan bog‘liq bo‘lmasdan alohida komponent ekanligi aniqlandi. Prognozlash shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,42$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Natijalarga ko‘ra, prognozlash maktab va o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi kuzatildi.

Maqsadni qo‘yish maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,55$; $p\leq 0,01$), o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq bilan ($r=0,44$; $p\leq 0,01$), shaxslararo munosabat bilan bog‘liq bilan ($r=0,78$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Rejalashtirish maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,61$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega bo‘lsa, o‘z-o‘zini baholash va shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Sifatni baholash mezoni maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,53$; $p\leq 0,01$), o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,41$; $p\leq 0,01$), shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,69$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. Qaror qabul qilish o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$), shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,82$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. O‘zini o‘zi boshqarish maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,77$; $p\leq 0,01$), shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,47$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Shuning bilan birga o‘zini o‘zi boshqarish o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd qilindi. Korreksiya shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,38$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega bo‘lsa, maktab va o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmasdan alohida komponent ekanligi aniqlandi. O‘zini o‘zi boshqarishning umumiy qobiliyati maktab bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,48$; $p\leq 0,01$), o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,66$; $p\leq 0,01$), shaxslararo munosabat bilan bog‘liq xavotirlanish bilan ($r=0,61$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Tadqiqotda o‘zini o‘zi boshqarish va irodaviy sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida V.M.Chumakov tomonidan taklif qilingan “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish metodikasi” tanlab olingan o‘smirlar guruhida o‘tkazildi. Mazkur metodika shaxsdagi mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik, jur‘atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat‘iyatlilik, g‘ayratlilik, e‘tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatning shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Metodika

irodaviy sifatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda o'zini o'zi nazorat qilish va irodaviy sifatlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishdan iborat.

4-jadval natijalariga ko'ra, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish ma'suliyatlilik bilan ($r=0,43$; $p\leq 0,01$), tashabbuskorlik bilan ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), jur'atlilik bilan ($r=0,31$; $p\leq 0,01$), mustaqillik bilan ($r=0,16$; $p\leq 0,01$), matonatlilik bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,01$), g'ayratlilik bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,01$), etiborlilik bilan ($r=0,20$; $p\leq 0,01$), maqsadga intiluvchanlik bilan ($r=0,26$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Shuning bilan birga, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish qat'iyatlilik bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi.

